

“BAXTSIZ KUYOV” VA “MARJON SHODASI” ASARLARINING QIYOSIY
TAHLILI

Sharifov Azizbek Dilshodovich

Buxoro davlat universiteti 1-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22879189>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek va jahon adabiyoti namunalari bo'lgan Abdulla Qodiriyning “Baxtsiz kuyov” va Gi de Mopassanning “Marjon shodasi” asarlarining syujeti, obrazlar tizimi, peyzaji o'zaro solishtiriladi, o'xshash va farqli jihatlari qiyosiy aniqlanadi.

Kalit so'zlar: o'zbek adabiyoti, jahon adabiyoti, hikoya, adabiyot, badiiy tahlil, obraz, badiiy asar, obraz, syujet, peyzaj, drama, jadidchilik.

Аннотация. В данной статье сравниваются сюжет, система образов и ландшафт произведений Абдуллы Кодирия «Несчастный жених» и Ги де Мопассана «Радость кораллов», являющихся образцами узбекской и мировой литературы, и выявляются их сходства и различия.

Ключевые слова: Узбекская литература, мировая литература, рассказ, литература, художественный анализ, образ, произведение искусства, изображение, сюжет, пейзаж, драма, джадидизм.

Abstract. This article compares the plot, image system, and landscape of the works of Abdulla Qodiriy's "The Unhappy Groom" and Guy de Maupassant's "The Joy of Coral", which are examples of Uzbek and world literature, and identifies their similarities and differences.

Keywords: Uzbek literature, world literature, story, literature, artistic analysis, image, work of art, image, plot, landscape, drama, Jadidism.

Kirish. O'zbek va jahon adabiyoti bir-biriga yaqin va ayrim o'xshash jihatlari bor. Shu bilan birga ayrim farqli jihatlari ham mavjud. Bir qarashda ularni anglash qiyin bo'lsa-da, chuqur tahlil va tadqiqotlar natijasida buni ko'ra olish mumkin.

Gi de Mopassan XIX asr realizmining eng yirik vakillaridan bo'lib, o'zining qisqa, ammo ta'sirchan hikoyalari bilan jahon adabiyotida alohida o'rin egallaydi. “Marjon shodasi” hikoyasi insonning ichki dunyosi, ijtimoiy muhit ta'siri va qanoatsizlikning fojeali oqibatlari haqida chuqur ma'noga ega asardir. Hikoya fransuz jamiyatidagi tabaqalanish, mavqe orzusi, insonning o'zini ko'rsatish istagi va taqdir irodasi bilan yo'g'rilgan bo'lib, zamonaviy o'quvchi uchun ham dolzarbligicha qolmoqda.

To'ylar, turli marosimlar bilan bog'liq muammolar, isrofgarchilik va dil xiraliklar hamma vaqt asosiy muammo bo'lib kelgan. Bunga asosiy sabab, insonlarning tor dunyoqarashi, atrofdagi odamlarning gapiga qarab ish qilishi va albatta haddan ortiq orzu-havasga berilishidir,

Bunday insonlar nafaqat o'zini balki, boshqalarni ham qiyin vaziyatda qoldirishi, hattoki hayotiga zomin bo'lishi ham mumkin. Jadidchilik harakatining yirik namoyondasi bo'lgan Abdulla Qodiriy o'zining “Baxtsiz kuyov” nomli dramasida aynan shu kabi muammolarni ko'targan. Muallif qoloq odatlardan biri-hashamatli to'y ortiqcha sarf-xarajatlar va ularning ko'ngilsiz oqibatlarini yoritib bergan.

Asosiy qism. Abdulla Qodiriy o'zining "Baxtsiz kuyov" dramasi realizmga tayangan holda o'z davridagi o'zbek jamiyatining turmush tarzini, urf-odatlarini va kambag'al yoshlarning fojiasini ko'rsatadi. Asarda Ellikboshi –haqiqat, Fayziboy –urf-odat, domla –diniy niqob ostidagi bid'at, Abdurahim esa zaif irodani ifodalaydi. Qodiriy o'z fikr va xulosalarini, qarashlarini ellikboshi tilidan bayon qiladi. Asar bosh qahramonlari bo'lgan Solih va Rahimaning halokati esa turli bid'at va xurofotlar, jaholat va ilmsizlik sababli ayanchli holda qolgan millatni ifodalaydi.

Dramada tarbiyaviy jihat kuchli talqin etilgan. Yoshlarning mustaqil fikrlashi, o'z hayoti uchun o'zi javob berishi, kattalar esa farzandlarning fikrini hurmat qilishi lozimligi haqida chuqur xulosa qilamiz. Bu asar o'quvchilarni qadimiy-urf odatlarga ko'r ko'rona ergashmasdan, adolat, insof va shaxsiy huquqlarga asoslangan holda hayot tarzini tanlashga undaydi.

Mopassan qalamiga mansub "Marjon shodasi" hikoyasining markazida Matilda Loazelning ijtimoiy mavqega intilishi turadi. U hayotidan norozi, dabdabali hayotni orzu qiluvchi, ammo real imkoniyatlari bunday hayotga to'g'ri kelmaydigan oddiy ayol obrazidir. Hikoyadagi ichki kechinmalar — Matildaning o'zini boshqacha ko'rsatish istagi, boylikka chanqoqligi, xayolida yashashi — barchasi psixologik realizm yordamida chuqur ochib beriladi. Marjonning yo'qolishi uning ruhiy holatida keskin burilish yasaydi.

Hikoyaning eng keskin va fojeali nuqtasi —Matildaning o'n yillik mashaqqatli hayot kechirgandan keyin marjonning aslida soxta ekanligi ma'lum bo'lishi. Bu taqdir ironiyasi Mopassanning eng kuchli badiiy usullaridan biridir.

Yuqoridagi ikki asar turli farqli jihatlariga ega. Dastlabki farq ulardagi obrazlarda. "Baxtsiz kuyov" dramasi bosh qahramon ijobiy, uning atrofida g'ayrat va salbiy obraz sifatida gavdalantirilsa, "Marjon shodasi" hikoyasida buning Mutlaq teskarisi. Qodiriy dramasi bosh qahramon o'zi istamagan holda qarz olishga majbur bo'ladi. Atrofida odamlar uni bunga undashadi. Matilda esa xarakter jihatidan butunlay boshqacha bo'lib, u o'zini boydek ko'rsatishni istaydi. Turmush o'rtog'i uni bu yo'ldan qaytarishga bo'lgan harakatlari zoye ketadi. Matilda azmlarga yaqin dugonalarining taqinchoqlarini taqib boradi va mana shu boylikka, hashamatga bo'lgan xirs oqibatda uni qiyin ahvolga solib qo'yadi.

Asarlarning yakuni ham bir-biridan farq qiladi. "Baxtsiz kuyov" dramasi qahramoni Solih va ayoli Rahima qarzdan qutulolmay o'z joniga qasd qilishsa, "Marjon shodasi"da Matilda va eri qarzlarni uzishadi, ammo ularning hayoti yomon tomonga tubdan o'zgarib ketadi.

Bu ikki asarning o'zaro o'xshash jihatini ham aytib o'tmoq joiz. Ikkala asarning g'oya va mafkurasi bitta: haddan ortiq dabdaba va hashamatga berilmaslik, boylikka ruju qo'ymaslik, nafsni tiyish, tabir joiz bo'lsa "ko'rpaga qarab oyoq uzatish". Asarlar makon va zamon nuqtayi nazaridan turli joy va davrda yaratilgan bo'lishiga qaramasdan, bir xil ijtimoiy-siyosiy sharoitda yaratilgan.

Qodiriy Turkistonning eng qora kunlarida – jaholatga botgan kunlarida yashagan bo'lsa, Mopassan yashagan davrda Fransiyadagi ahvol ham havas qilarli darajada emasdi. Faranglar Prussiya bilan urushda mag'lub bo'lishadi, nemislarga katta o'lpon to'lashadi, amaldorlarning oddiy xalqqa zulmi yanada ortadi. Natijada aholining turmush tarzi misli ko'rilmagan darajada og'irlashadi.

Xulosa. Demak, bu ikki asarning zamiridagi g‘oya va mazmun bir xil –mablag‘ni behuda narsalarga sarflamaslik, o‘zini tiyish, birovlarining fikri bilan ish qilmaslik va inson o‘z asli kabi bo‘lishi. Shu sababli bu ikki asarni “paradigmatik asarlar” deb atash ham mumkin.

Oradan ancha vaqt o‘tgan bo‘lishiga qaramasdan, yuqoridagi asarlar bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan chunki yozuvchilar tomonidan qoralangan illatlar hozirgi davrda ham odamlar orasida ko‘p uchramoqda.

FOYDALANILGAN MANBALAR

1. Qodiriy A. Baxtsiz kuyov. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2024. – 208 b.
2. Mopassan G. Marjon shodasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2024. – 192 b.
3. O‘razova I. , Xakimova F. Mopassan hikoyalarida ayol obrazlari. //Pedagogical reforms and their solutions. 2025, N2 126-127 b.
4. Alisherova A. , Norkulova Sh. Abdulla Qodiriy drammlarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari (“Baxtsiz kuyov” asari misolida). //Modern science and research. 2025, N9 381-383 b.